

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

AXBOROT XATI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-pedagog kadrlar bo'limi, Yosh filolog olimlar kengashi tomonidan **2022-yil 27-aprelda "Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo'lidagi ilk odimlar"** mavzusida ilmiy-amaliy anjumanini o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Konferensiya quyidagi sho'balar bo'yicha ish olib boradi:

I sho'ba. Tilshunoslik.

- a) til tarixi;
- b) til nazariyasi;
- c) hozirgi o'zbek adabiy tili;
- d) turkiy tillar;
- e) Imlo muammolari;
- f) Shevashunoslik;
- g) Lingvopoetika masalalari;
- h) Psixolingvistika;
- i) Lingvokulturologiya;
- j) Kognitiv tilshunoslik;
- k) Semantika;
- l) Lingvofolkloristika;
- m) Qiyosiy tilshunoslik;
- n) Chog'ishtirma tilshunoslik.

III sho'ba. Tarjimashunoslik.

- a) tarjima nazariyasi va amaliyotidagi yangicha yondashuvlar;
- b) badiiy, ilmiy-texnikaviy, sinxron tarjima istiqbollari;
- c) tarjimon kompetensiyasining shakllanishi;
- d) Lingvistik tarjimashunoslik muammolari;
- e) tarjimon mahoratini tekshirish.

II sho'ba. Adabiyotshunoslik.

- a) o'zbek adabiyoti tarixi;
- b) zamanovaviy adabiy jarayon (nazm, nasr, dramaturgiya);
- c) folklorshunoslik;
- d) turkiy xalqlar adabiyoti;
- e) bolalar adabiyoti.
- f) matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
- g) navoiyshunoslik
- h) qiyosiy adabiyotshunoslik
- i) jahon adabiyoti muammolari

IV sho'ba. O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi.

- a) o'zbek tilini o'qitish metodikasi;
- b) o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi.
- c) Tarjima o'qitish metodikasi

VI sho'ba. Amaliy filologiya.

- a) amaliy filologiya;
- b) kompyuter lingvistikasi;
- c) noshirlik ishi.

Konferensiya materiallarini elektron nashr etish ko'zda tutilmoqda. Maqolalar konferensiya sho'balarini mavzusi bo'yicha joylashtiriladi.

Maqolaga qo'yiladigan talablar:

Maqolalar 1400-1500 so'zdan iborat hajmda bo'lishi lozim (iqtibos olingan holda mualif ko'rsatilishi shart! Boshqa manbalardan ko'chirilgan, yoki konsept tarzida yozilgan maqolalar qabul qilinmaydi);

1,5 intervalda, o‘ng tomondan 3 sm, chap tomondan 1 sm, yuqori va pastdan 2 sm hoshiya qoldirib, Times New Roman 14 shriftda elektron variantda topshiriladi. Maqola annotatsiyasi ingliz, o‘zbek tillarida 50-70 ta so‘z, kalit so‘zlar 5-7 tagacha bo‘lishi kerak (Annotatsiya bu maqola falon narsa haqida degan umumiy gapdan iborat bo‘lmasligi kerak. Maqolani yozishdan qanday tadqiqot metodi va metodologiyasidan foydalanildi, muammoga yechim berildimi, berilgan bo‘lsa qanday? Maqola dolzarbmi kabi savollarga javob berish maqsadga muvoqfiq; namuna ilova qilinadi).

Maqola sarlavhasi katta harflarda beriladi.

Muallif familiyasi, ismi, sharifi, fakulteti, kursi, elektron pochtasi, telefon raqami 1 intervalda, 14 shrift, yotiqlar (*kursiv*) uslubda beriladi. Matn so‘ngida foydalilanilgan adabiyotlar keltiriladi. Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati va havolalar APA tizimida berilishi shart. (tizim haqida quyidagi havoladagi maqola orqali bataysil bilib olishingiz mumkin. <https://www.mendeley.com/guides/apa-citation-guide>)

Havolalar matn ichida qavsda beriladi. Maqolalar ilmiy rahbar ko‘rib chiqganidan so‘ng yuborilishi maqsadga muvofiq.

Konferensiya sho‘balari hay’ati qarorlariga ko‘ra “Eng dolzarb mavzudagi maqola”, “Eng yaxshi ilmiy asoslangan maqola”, “Eng tirishqoq yosh mutaxassis” yo‘nalishlarida e‘tirof etilgan talabalar alohida sertifikat bilan taqdirlanadi.

Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz tillarida qabul qilinadi. Anjumanga sirtdan qatnashish mumkin.

Mualliflarning barchasiga maqolasi chop etilganligi haqida sertifikat beriladi.

Maqolalar **2022-yilning 10-apreligacha** filologiyacon@gmail.com elektron pochtasi orqali qabul qilinadi. Tashkiliy qo‘mita kelgan materiallarni saralash va tanlash huquqiga ega. Talab bo‘yicha yuborilmagan materiallar qabul qilinmaydi.

Tashkiliy qo‘mita manzili: ToshTO‘DAU, Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi, 423-xona. Mas’ul: Dilnavoz Najimova ( @Dilnavoz_Najimova)

NAMUNA

“IRQ BITIG”DA KOSMOGONIK MIF IZLARI

*Abdullayev Javohir Usmon o‘g‘li
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs
javohirusmon@mail.ru +998976331921*

Abstract

(70 -100 ta so‘z). *abstract, abstract, abstract,*

Keywords: **(5-7 ta so‘z).** *keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords.*

Asosiy matn. **(4-5 bet)** Asosiy matn. **Havolalar matn ichida qavsda beriladi.** Asosiy matn (Akramov, 1997, 3-bet). Asosiy matn. Asosiy matn (Jo‘rayev&Narziqulova, 2016, 89-bet). Asosiy matn (Radloff, 1894, 19-bet). Asosiy matn (Turdimov, 2011, 81-bet). Asosiy matn (Кормушин, 1997, 141-bet).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramov, G‘. (1997). “Xamsa”da mifologik zamon va makon talqini. *O‘zbek tili va adabiyoti*, 2, 78-81.
2. Jo‘rayev, M., & Narziqulova, M. (2006) *Mif, folklor, adabiyot*. (183-bet). Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
3. Radloff, W. (1894). *Die alttürkischen Inschriften der Mongolei*. (pp. 460). St-Pbg: Neue Folge.
4. Turdimov, Sh. (2011). “*Go‘ro‘g‘li*” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. (308-bet). Filol. fan. dok. diss. Toshkent.
5. Кормушин, И.В. (1997). Тюркские и енисейские эпитафии. Тексты и исследование. *Наука*. С. 303.